



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 6 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



| № | MUNDARIJA | Page |
|-----|--|------|
| 1. | SUG'URTA XIZMATLARIGA BO'LGAN ISTE'MOL TALABINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i> | 4 |
| 2. | O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA RAQAMLASHTIRISHNING TA'SIR YO'NALISHLARI <i>Nomozova Qumri Isoevna</i> | 9 |
| 3. | QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI <i>PhD. dosent Kalenov K.T.</i> | 14 |
| 4. | MARKAZIY OSIYODA TAKAFULNING VAKALAH MODELINI TADBIQ QILSIH IMKONIYATI <i>Fayzullayev Diyorbek Zafar o'g'li</i> | 17 |
| 5. | INOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA RASSIYA FEDERATSIYASI BANK SUG'URTASINING XOZIRGI XOLATINING TAXLILI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i> | 20 |
| 6. | O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i> | 23 |
| 7. | O'ZBEKISTONDA KARBON BOZORI VA KARBON SUG'URTASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i> | 25 |
| 8. | УПРАВЛЕНИЕ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ОПТИМИЗАЦИИ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Роишева Диёра Равшановна</i> | 28 |
| 9. | ЦИФРОВОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ФИНТЕХ КАК ДРАЙВЕРЫ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННЫХ СДЕЛОК В РЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Рахимбоева Сугдиёна Рахимбоевна</i> | 33 |
| 10. | TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI CHAKANA XIZMATLARI VA UNING NAZARIY ASOSLARI <i>Alimov Umid O'ktambayevich</i> | 37 |
| 11. | TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI <i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i> | 42 |
| 12. | TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Mamaraimova Rushana Rashidovna</i> | 46 |
| 13. | O'ZBEKISTONDA BANK SOHASIDAGI ISLOHOTLAR: HOZIRGI MUAMMOLAR VA YUZAGA KELAYOTGAN IMKONIYATLAR <i>dotsent, Sung Tae Kyun</i> | 50 |
| 14. | TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI <i>Yuldashev Fozil Turapovich</i> | 57 |
| 15. | DAVLAT IQTISODIY SIYOSATINING INVESTISION MUHITGA TA'SIRI <i>Imomov Xamdilla Xamdamovich</i> | 61 |
| 16. | O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISH TAHLILI <i>Shirinov Sabir Erkinovich, Mirasimov Ershod Sunatullayevich, Kabirov Abdulla Maxmutovich</i> | 63 |

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



TRANSFORMATSIIYA JARAYONIDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI

Xaitov Shaxzod Sharipboyevich

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB

Chakana biznes departamenti, direktor o'rinbosari

XaitovSh@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash jarayonida islom bankchiligi tizimini joriy etishning iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Islom bankchiligi konsepsiyasining mohiyati, uning shakllanish tarixi hamda global moliya tizimidagi o'rnini ilmiy asosda yoritiladi. Mamlakatimizda islom bankchiligi instrumentlaridan foydalanish darajasi, ularni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari va mavjud to'siqlar chuqur tahlil qilinib, transformatsiya jarayonining talablariga mos ravishda mazkur tizimni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari aniqlanadi. Xususan, islomiy moliyalashtirishni iqtisodiyotni liberallashtirish, moliya bozorini diversifikatsiyalash, investitsion muhitni yaxshilash va moliyaviy inklyuziyani kengaytirish jarayonlarida qo'llash imkoniyatlari asoslab beriladi. Shuningdek, O'zbekistonda islom bankchiligi instrumentlaridan foydalanishni rivojlantirishdagi amaldagi cheklovlar, institutsional nomutanosibliklar hamda infratuzilmaviy muammolar ko'rsatib berilib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari mamlakatimiz moliya tizimini transformatsiya qilishda islom bankchiligining strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: islom bankchiligi, transformatsiya jarayoni, islom darchalari, islom taraqqiyot banki, islomiy moliyalashtirish instrumentlari, nobank kredit tashkilotlari, mikromoliyalashtirish.

Abstract: This article analyzes the economic, institutional, and social significance of introducing the Islamic banking system in the process of transforming Uzbekistan's economy. The essence of the Islamic banking concept, the history of its formation, and its role in the global financial system are scientifically examined. The level of application of Islamic banking instruments in the country, the organizational and legal mechanisms for their development, and existing barriers are thoroughly analyzed. Priority directions for modernizing this system in accordance with the requirements of the transformation process are identified. In particular, the study substantiates the potential application of Islamic financing in the processes of economic liberalization, financial market diversification, improvement of the investment climate, and expansion of financial inclusion. Moreover, the existing limitations, institutional inconsistencies, and infrastructural challenges hindering the development of Islamic banking instruments in Uzbekistan are highlighted, and scientific-practical recommendations for their elimination are proposed. The research results demonstrate that Islamic banking holds strategic importance for the transformation of the national financial system.

Keywords: Islamic banking, transformation process, Islamic windows, Islamic Development Bank, Islamic financing instruments, non-bank credit institutions, microfinance.

Абстрактный: В данной статье анализируется экономическое, институциональное и социальное значение внедрения системы исламского банкинга в процессе трансформации экономики Узбекистана. На научной основе раскрываются сущность концепции исламского банкинга, история его формирования, а также его роль в глобальной финансовой системе. Проведён глубокий анализ уровня использования инструментов исламского банкинга в нашей стране, организационно-правовых механизмов их развития и существующих барьеров. Определены приоритетные направления модернизации данной системы в соответствии с требованиями трансформационного процесса. В частности, обоснованы возможности применения исламского финансирования в процессах либерализации экономики, диверсификации финансового рынка, улучшения инвестиционного климата и расширения финансовой инклюзии. Кроме того, выявлены текущие ограничения, институциональные несоответствия и инфраструктурные проблемы, препятствующие развитию использования инструментов исламского банкинга в Узбекистане, и разработаны научно-практические рекомендации по их устранению. Результаты исследования показывают, что исламский банкинг обладает стратегическим значением в трансформации финансовой системы страны.

Ключевые слова: исламский банкинг, процесс трансформации, исламские окна, Исламский банк развития, инструменты исламского финансирования, небанковские кредитные организации, микрофинансирование.

Kirish (Введение/Introduction).

Hozirgi davrda islom bankchiligi global moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida turli shakl va ko'rinishlarda faoliyat yuritmoqda. U nafaqat bank sektori, balki bank bo'lmagan moliyaviy institutlar, nobank kredit tashkilotlari, lizing kompaniyalari, investitsiya fondlari va mikromoliyalashtirish sub'yektlari orqali ham keng namoyon bo'lmoqda. Mazkur tizimning yirik va kichik, ixtisoslashgan va diversifikatsiyalashgan, milliy va transmilliy ko'rinishlarda shakllanishi islom moliya bozorining global miqyosda rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, islom bankchiligi amaliyotining an'anaviy banklar qoshidagi islomiy "darchalar" orqali joriy etilishi, ayrim hollarda, bu tizimning asl tamoyillaridan chetga chiqish xavfini keltirib chiqaradi. Chunki ba'zi moliya muassasalari islom bankchiligi mexanizmlarini mohiyatdan emas, balki tashqi ko'rinish jihatdan qo'llashga moyillik bildirayotgani ilmiy manbalarda ham ta'kidlanadi. Mazkur holat islom bankchiligi g'oyalarning sof mohiyatiga putur yetkazishi, jamiyatda ushbu tizimga nisbatan ishonchning susayishiga olib kelishi mumkin.

Transformatsiya jarayonida moliya sektoridagi islohotlarning asosiy maqsadi sifatida nafaqat yangi xizmat turlarini joriy etish, balki ularning mazmun-mohiyati, shaffofligi va adolat tamoyillariga mosligini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, islom bankchiligi tizimini joriy qilishda uning ruhiyati – foyda va xavflarni teng taqsimlash, haddan tashqari qarzdorlikning oldini olish, aktivlarga asoslangan moliyalashtirish hamda iqtisodiy jarayonlarda ijtimoiy adolatni ta'minlash tamoyillari chuqur ang'lanishi va amaliyotga to'g'ri implementatsiya qilinishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrda Murojaatnomasida islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish zarurligi ta'kidlanishi, mamlakatda moliyaviy transformatsiyaning yangi bosqichiga o'tilayotganini ko'rsatadi. Bu esa islom bankchiligi tizimini xalqaro tajriba asosida joriy etish, uning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish va institutsional infratuzilmani yaratish bo'yicha davlat siyosatining aniq yo'nalishga ega ekanini anglatadi. [1]

Shuningdek, 2022 yil 20 aprelda qabul qilingan “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida”gi O'RQ-765-sonli Qonun islomiy moliyalashtirishning huquqiy poydevorini shakllantiruvchi muhim hujjatlardan biridir. Mazkur qonun orqali islomiy moliya xizmatlarini aniq tartibga solish, ularni bozorda faol joriy etish hamda nobank sektorida qo'llanilishini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratildi. Bu jarayon iqtisodiy transformatsiya sharoitida raqobatbardosh, diversifikatsiyalangan va moliyaviy inklyuziv tizim barpo etishning zaruriy sharti hisoblanadi. [2] Milliy iqtisodiyotimizda islom moliya instrumentlaridan foydalanishning asosiy maqsadi zamonaviy sharoitlarda moliya sektori oldida turgan muammolarni muqobil yondashuvlar orqali hal etish, resurslar taqsimotida adolat tamoyillarini kuchaytirish, investitsion faollikni oshirish hamda yangi moliyaviy vositalar orqali innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Transformatsiya jarayonida islom moliyasining joriy qilinishi iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiluvchi yangi mexanizmi shakllantiradi, moliya bozorida yangi ishtirokchilar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi va xalqaro islom moliya bozoriga integratsiyani jadallashtiradi. Umuman olganda, islom bankchiligini joriy etish nafaqat moliya sektoridagi transformatsiyaning tarkibiy qismi, balki iqtisodiy islohotlarning mazmunan chuqurlashuviga xizmat qiluvchi strategik yo'nalishdir. Shu sababli islom bankchiligi tizimi O'zbekiston iqtisodiyotining yangi o'sish nuqtalarini shakllantirishda, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda va jamiyatda ishonch kapitalini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Jahon iqtisodiyotida an'anaviy bank tizimi kapitalni foiz stavkasi asosida sotiladigan yoki ijaraga beriladigan mahsulot sifatida talqin qiladi. Ushbu modelda bank uchun yo'qotish riski minimal bo'lib, asosiy qarz va foizlar loyihaning muvaffaqiyatiga bog'liq bo'lmagan holda kafolatlanadi. Islom bankchiligi esa buning aksiga, o'z faoliyatida sheriklik va risklarni bo'lishish tamoyillarini ustuvor qo'yadi. Bank kreditordan ko'ra ko'proq biznes hamkori sifatida maydonga chiqadi va moliyaviy natijalar taraflar o'rtasida ulush asosida taqsimlanadi. Bunday yondashuv iqtisodiy amaliyotda ehtiyotkorlik, adolat va barqarorlikni kuchaytirishi ilmiy manbalarda keng ta'kidlanadi.

Xalqaro valyuta fondining sobiq rahbari Kristin Lagarde islom moliyasining risklarni taqsimlash tamoyiliga asoslanganligi sababli moliyaviy tizimlarni barqarorlashtirish salohiyatiga ega ekanini qayd etadi. Uning fikricha, aktivlarga asoslangan moliyalashtirish real iqtisodiy o'sishni rag'batlantirib, moliyaviy pufaklarning oldini oladi. [3] M. Chapra, islom iqtisodiyoti maktabining yetakchi olimlaridan biri, islom moliya tizimi jamiyatda iqtisodiy adolat va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishini, ayniqsa iqtisodiy transformatsiya jarayonlarida ushbu tizim muhim stabilizator vazifasini bajarishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, foizga asoslangan tizim jamiyatda boylikning notekis taqsimlanishiga olib kelsa, risklarni bo'lishish modeli bu jarayonni yumshatadi. [4]

E.T. Qodirov va J.K. Majidov esa islomiy loyihaviy moliyalashtirish nazariy jihatdan ustun bo'lishiga qaramay, amaliyotda islom banklarining aktivlar portfeli murabaha kabi savdo operatsiyalariga tayanayotganini qayd etadi. Bu holat, ularning fikricha, islom moliyasining transformatsiya jarayonidagi boshlang'ich bosqichini aks ettiradi, ya'ni tizim asta-sekin murakkab instrumentlarga o'tadi. [5]

Musaev va Magomedova globalizatsiya sharoitida islom moliyaviy institutlarining sezilarli o'sish sur'atlarini qayd etarkan, ularning xalqaro moliya bozorida mustahkam o'rnatilgan borayotganini va transformatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlashda katta salohiyatga ega ekanini alohida ta'kidlaydi. [6]

Shu bilan birga, S. Zubair kabi tadqiqotchilar islom bankchiligi iqtisodiy transformatsiyada muhim rol o'ynashini, chunki u real sektorni moliyalashtirishga yo'naltirilganligi va spekulativ operatsiyalarni cheklashi tufayli iqtisodiy inqirozlariga chidamliroq ekanini ta'kidlaydi. [7] Iqtisodchi olim Zaripovning fikricha, islom moliyasi jahon bozorida yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lishi bilan birga, an'anaviy moliya tizimidagi “pul bahosi” tushunchasiga muqobil sifatida “kapital samaradorligi” konsepsiyasini taklif etadi. Bu esa islom moliyasi mexanizmlarini iqtisodiy transformatsiya jarayonlarida samarali qo'llash imkonini yaratadi, ayniqsa iqtisodiy real sektorga investitsiyalarni yo'naltirishda. [8]

Islom moliyasining nazariy asoslarini chuqur o'rgangan Rafik Yunus al-Misri esa islom iqtisodiyoti tamoyillaridan kelib chiqqan holda islom moliyasining uch asosiy xususiyatini ajratib ko'rsatadi: aktivlarga asoslangan moliyalashtirish, iqtisodiy faoliyatga shariatiy cheklolvar qo'yilishi va kapital hamda tadbirkorlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik. Bu xususiyatlar islom bankchiligini iqtisodiy transformatsiya jarayonida muhim innovatsion moliyalashtirish mexanizmgiga aylantiradi. [9] S.Haronning ta'kidlashicha, Islomiy banklarning rentabelligi kapital

strukturasidan tortib makroiqtisodiy barqarorlikka qadar bo'lgan ko'plab o'zaro bog'liq determinantlar ta'sirida shakllanadi. [10]

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi yangi iqtisodiy modelga o'tayotgan yoki transformatsiya qilinayotgan tizimlar uchun ayniqsa mos keladi. Chunki u moliyaviy resurslar taqsimotini adolatli boshqarish, iqtisodiy faoliyatning real sektorga yo'naltirilishi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Shu bois, O'zbekiston iqtisodiyotining transformatsiya jarayonida islom bankchiligi tizimini joriy etish nafaqat moliya sektoridagi isbotlangan ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklarni milliy iqtisodiyotga tatbiq etish imkonini yaratadi. Ayniqsa, risklarni bo'lishish modeli, real sektorni moliyalashtirishga ustuvorlik berish va spekulativ operatsiyalarni cheklash kabi tamoyillar O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sish strategiyasi bilan to'liq uyg'unlashadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida islom bankchiligi instrumentlaridan foydalanish yo'llari nazariy tashkiliy xuquqiy asoslarini takomillashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati keltirib o'tildi. Shuningdek, qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan mamlakatlarda islom bankchiligi instrumentlaridan foydalanish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab tegishli xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты. Analysis and results).

Islom bank ishi faoliyatini boshlanishini aniq davri o'tgan asrning 60-yillarining boshlariga to'g'ri keladi. Birinchi Islom Jamg'arma banki Misr davlatida 1963 yili tashkil topgan, lekin uning faoliyati uzoq cho'zilgan.

1970 yillarga kelib Islom moliyaviy institutlarini yaratish bo'yicha amaliy ishlar jonlanib ketgan. 1974 yilda Islom davlatlari tashkiloti shariat normalari asosida iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish uchun davlatlararo Islom rivojlantirish bankini tuzish to'g'risida qaror qabul qildilar. 1975 yilda Dubai Islamic Commercial Banki tuzildi. Islom banklarini shakllanish bosqichida markaziy figuralardan biri bo'lgan, Saudiya Arabistoni Qirol oilasidan shahzoda Muhammad Fasal, hozirda Finance/DarAI Mal guruhining boshlig'i, shuningdek Shayx Salex Kamel, hozirda Aibaraca guruhining boshlig'i. 1977 yili Misr va Sudanda Faisal nomi bilan ikkita bank guruhini ochishdi. 1979 yili Baxreynda birinchi marotaba Islom banki tashkil etildi. Jahonning barcha davlatlaridagi kabi, Islom davlatlarida ham banklar iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Lekin Islom banklarining faoliyat tamoyili, oddiy bank faoliyatidan tubdan farq qiladi.

Islomda “ribo” tarzida haq olishni nazarda tutuvchi xo'jalik operatsiyalari taqiqlangan. “Ribo” deganda pul omonatleri/kreditlaridan an'anaviy foiz ham, qarzdan foydalanilganlik uchun qat'iy belgilangan to'lovlar ham tushuniladi. Masalan, kredit shartnomasida Fuqarolik kodeksining (744-748-moddalari) qarz oluvchining olingan pul summasidan foizlarni to'lash majburiyatini nazarda tutiladi. Ushbu majburiyat kredit ajratilgan loyiha qanchalik muvaffaqiyat bilan yakunlanganiga bog'liq bo'lmaydi. Shu sababli qaror musulmon mamlakatlaridagi moliya muassasalari, shuningdek Islom taraqqiyot banki o'z moliya operatsiyalarida bunday qoidalarni qo'llamaydi.

Shuni qayd etib o'tamizki, «ribo» taqiqlanganiga qaramay, bunday shartlarda qarz olgan kishi shartnomani bajarishga majbur.

Shu bilan birga, musulmon an'anasiga ko'ra foyda olish maqsadida birgalikda investitsiya kiritish xususida hamkorlik bitimlarini tuzish rad etilmaydi. Bu islom banki uchun asos yaratdi. Uning asosiy jihatlari:

- bank omonatleri o'rni bank hamkorlari paylar kiritadilar, ularning daromad keltirishi bankning daromad ko'rishiga bog'liq;
- mablag'lar Islomda taqiqlanmagan faoliyat uchun taqdim etiladi;
- foiz stavkasi, shuningdek qarzdan foydalanilganlik uchun qat'iy belgilangan to'lovlar mavjud emas;
- bank bilan mablag' oluvchi o'rtasidagi foyda va zararlar ularning loyihaga qo'shgan hissasiga mutanosib miqdorda taqsimlanadi.

Bunday moliyaviy operatsiyalar uchun tegishli infratuzilma va normativ-huquqiy baza bo'lishi zarur. Shu sababli mamlakatimizda Islom bank ishi va moliya prinsiplarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha komissiyani tashkil etildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 apreldagi “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida” gi O'RQ – 765 sonli Qonunining qabul qilinishi mamlakatimizda islom moliya instrumentlaridan foydalanish tizimini rivojlantirishdagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Ushbu qonunda Islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar deganda islomiy moliyalashtirishni amalga oshirish standartlarini belgilovchi xalqaro tashkilotlarning qoidalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan tartibda ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar tushuniladi.

Bugungi kunda «Islom taraqqiyot banki» guruhi tarkibiga kiruvchi «Xususiy tarmoqni rivojlantirish Islom korporatsiyasi» (ICD) O'zbekistonning bir necha tijorat banklarida islom moliya mahsulotlari va xizmatlari taqdim etuvchi darchalarni («islom darchalari») ochish yuzasidan keng ko'lamli ishlar olib bormoqda.

Islom darchalari faoliyatini tushunish uchun birinchi navbatda islom bankchiligini an'anaviy bankchilikdan qanday farqlari borligi hamda taklif qilinayotgan xizmatlar va mahsulotlar turlarini bilib olish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, islom moliyasi qarz berish yo moliyalashtirish ishlarida aynan shariat tamoyillari va qoidalariga asoslangan jarayonlarni qamrab olishi hamda islom moliya tamoyillariga mos bo'lgan bitimlar tuzadi. Shu bilan, islom moliyasi an'anaviy moliyalashtirish yoki qarz berishdan farq qiladi. Masalan, go'sht mahsulotini olaylik, hayvon yoki parrandaning islom dini talablariga rioya qilgan holda so'yilishi uni (ya'ni go'shtni) halol go'sht sifatida talqin qilinishiga sabab bo'ladi. Xuddi shu kabi, moliyalashtirish yoki qarz berishda, yoki boshqacha aytganda, taraflarning moliyaviy munosabatlarga kirishishida islom dini talablariga amal qilinishi moliyaviy mahsulot va xizmatlarni halol/shar'iy deb e'tirof etilishiga sabab bo'ladi.

1-rjadval

Xususiy tarmoqni rivojlantirish Islom Korporatsiyasi (ICD) faoliyati¹

| Bo'lim | Ko'rsatkich / Institut | Ma'lumot |
|---------------------|--------------------------------|---|
| Asosiy institutlar | ITFC | Savdoni Moliyalashtirish bo'yicha Xalqaro Islom Korporatsiyasi |
| | ICIEC | Investitsiyalar va Eksportni Sug'urtalash bo'yicha Islom Korporatsiyasi |
| | ISDBI | Islom Taraqqiyot Banki Instituti |
| | ICD | Islom Taraqqiyot Banki Guruhining Xususiy Sektor Korporatsiyasi |
| ICD haqida | Tashkil etilgan yil | 1999 |
| | Ustav kapitali | 4 mlrd AQSh dollari |
| | To'langan kapital | 1.3 mlrd AQSh dollari |
| | Faoliyati | Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha xalqaro moliyaviy institut |
| Aksiyadorlar ulushi | A'zo mamlakatlar | 48% |
| | IsDB | 41% |
| | Davlat moliyaviy tashkilotlari | 11% |
| Kredit reytinglari | Moody's | A2 |
| | S&P Global | A |

Xususiy tarmoqni rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasi (ICD) mamlakatda islom moliyasining rivojlanishida alohida o'rin egallagan. Shu kunga qadar ushbu tashkilot tomonidan umumiy miqdori 400 million AQSh dollariga teng mablag' mamlakatdagi 18ta tijorat banklari, 2ta lizing kompaniyasi orqali 260dan ortiq kichik va o'rta biznes vakillarini to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish uchun yo'naltirildi va shu orqali 5,000dan ortiq yangi ish o'rinlari tashkil etilishiga erishildi². O'zbekistonda islom moliya xizmatlari sanoatining keng qamrovli joriy etilishi mamlakat uchun quyidagi imkoniyatlarni ochishiga imkon yaratishi mumkin:

- xorijdan kelayotgan investitsiyalar hajmini oshirish va diversifikatsiyalash;
- bank tarmog'ida halol va shaffof raqobat muhitini yaratish hamda bank tizimi aktivlarini diversifikatsiyalash imkoniyatini yaratish;
- aholi va biznes vakillari ixtiyorida bo'lgan bo'sh pul mablag'larining

¹ Xususiy tarmoqni rivojlantirish b'uyicha Islom Korporatsiyasining statistik ma'lumotlari

iqtisodiyot rivojlanishida maksimal ishtirokini ta'minlash;

- mamlakatda kapital bozorini rivojlantirish va diversifikatsiyalash;
- ko'plab yangi ish o'rinlari yaratish;
- aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali, moliya bozorida faolligini ko'tarish;
- Islom moliya xizmatlari industriyasini rivojlantirish orqali mamlakatda infratuzilmani muvofiqlashtirish va yangilash;
- yangi moliyaviy muassasalar tashkil qilish;
- kambag'allikka qarshi kurashish davlat dasturini amalga oshirishga hissa qo'shish;
- yangi yo'nalishda kadrlar tayyorlash dasturini yaratish.

2-jadval

Islom darchasiga qo'yiladigan talablar³

| Bo'lim | Talablar mazmuni |
|--|---|
| Rahbarlar va xodimlarning mas'uliyati | <ul style="list-style-type: none"> • Moliyaviy muassasa rahbarlari konsepsiyani to'liq tushunishi va unga sodiq bo'lishi shart. • Shariat tamoyillariga rioya qilishda samimiyluk va sodiqlik muhim. • Islomiy darcha xodimlari an'anaviy bank xodimlaridan alohida tayyorlangan bo'lishi kerak. • Xodimlar islomiy bitimlarni to'g'ri izohlash va tushunishga mas'uldir. |
| Resurslarning / mablag'larning to'liq ajratilganligi | <ul style="list-style-type: none"> • Islomiy darcha hisobvaraqlari an'anaviy bank faoliyatidan ajratilgan bo'lishi kerak. • Xizmatlar an'anaviy bank xizmatlaridan alohida yuritiladi. • Talablarni bajarish maxsus texnik-dasturiy ta'minot orqali qo'llab-quvvatlanadi. |
| Shariat Kengashi / Qo'mitasi | <ul style="list-style-type: none"> • Har bir islom moliya muassasasida mustaqil Shariat kuzatuv kengashi bo'lishi shart. • Kengash tarkibi yuqori malakali mujtahid olimlardan iborat bo'lishi lozim. • Barcha operatsiyalar yil davomida Shariatga muvofiqligi bo'yicha nazorat qilinadi. |
| AAOIFI bilan muvofiqlik | <ul style="list-style-type: none"> • Buxgalteriya hisobi va audit AAOIFI talablari asosida yuritilishi shart. • Standartlarga rioya qilish faoliyatning aniq va shaffof bo'lishini ta'minlaydi. • Nizolarni bartaraf qilish va xavflarni kamaytirishga yordam beradi. |

Ushbu ishlarning amalga oshirilishi natijasida O'zbekiston islom moliyasi sohasida MDH davlatlari ichida yetakchi mamlakatga aylinishi shubhasiz. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, islomiy moliyaviy xizmatlar sohasi O'zbekistonning porloq kelajagi uchun muhim omil, poydevor va rivojlanish istiqboli bo'ladi, natijada o'z madaniyatida Islomning chuqur ildizlarini aks ettirgan mamlakatga xorijiy investorlarning qiziqishi ortadi va hukumat ushbu imkoniyatdan xalq farovonligi hamda mamlakatning barqaror rivojlanishida to'laqonli foydalanishga erishishi mumkin bo'ladi.

Xulosa va takliflar (Заключение. Conclusion).

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida moliyaviy tizim samaradorligini oshirish, moliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish va jahon moliya bozorlariga integratsiyani chuqurlashtirish zaruriy vazifalardan biridir. Shu munosabat bilan islom bankchiligi tizimini joriy etish transformatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat rahbarining 2017-yil 20-dekabrda "Xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlik samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2019-yil 5-martdagi "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish choralari doir" qarorlari islomiy moliya mexanizmlarini rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratib berdi. Ushbu hujjatlar islom bankchiligi institutlarini milliy moliya

² <https://icd-ps.org/> sayti ma'lumotlari asosida ishlab chikildi

³ <https://icd-ps.org/> sayti ma'lumotlari asosida ishlab chikildi

tizimiga bosqichma-bosqich va tartibli integratsiya qilishning tashkiliy, institutsional va metodologik tamoyillarini belgiladi.

Islom bankchiligi tizimini samarali joriy qilish uchun avvalo uning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan institutsional cheklavlarni bartaraf etish talab etiladi. Jumladan, an'anaviy banklar tarkibida "islom darchalari"ni tashkil etish transformatsiya jarayonining boshlang'ich bosqichida eng maqbul yondashuvlardan biri hisoblanadi. Bunday model diniy e'tiqodlari tufayli an'anaviy moliya xizmatlaridan foydalana olmayotgan mijozlar uchun qulay imkoniyat yaratadi, mavjud mijozlar bazasini saqlab qoladi va yangi auditoriyani jalb qiladi. Shuningdek, to'laqonli islom banklari bilan teng raqobat sharoitini shakllantirishga xizmat qiladi hamda islomiy moliya tamoyillarini milliy moliya tizimiga silliq integratsiya qilish imkonini beradi.

Islom bankchiligi mohiyatiga ko'ra, moliyalashtirish savdo operatsiyalariga, aktivga asoslangan bitimlarga tayanadi. Bunda bank mijoz talabiga muvofiq ob'ekt qurib berishi, tovar va asbob-uskunalar xarid qilib berishi yoki ularni ijaraga berishi mumkin. Biroq amaldagi soliq mexanizmlari va bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bu kabi operatsiyalarni to'laqonli amalga oshirishga imkon bermaydi. Banklarning savdo amaliyotlarini bajarishi qonunchilikda to'liq tan olinmagani, soliq yukining ortib ketishi va me'yoriy-huquqiy nomutanosibliklar islom bankchiligi rivojlanishini cheklab turuvchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Shuning uchun transformatsiya jarayonida banklar faoliyatining an'anaviy chegaralarini qayta ko'rib chiqish, savdo asosidagi moliyalashtirishni huquqiy jihatdan tan olish hamda soliq

siyosatini islomiy moliya standartlariga moslashtirish zarur. Islomiy moliya tizimi bugungi kunda nafaqat musulmon davlatlarda, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Dastlab "startap" shaklida shakllangan ushbu tizim hozirgi paytda yetarli tajribaga ega, xalqaro moliyaviy standartlarga mos, mustaqil infratuzilmaga ega kompleks tizimga aylandi. Bu jarayon O'zbekiston uchun ham muhim strategik imkoniyatlar yaratadi. Xususan, "janub-janub" iqtisodiy hamkorligini kengaytirish, Islom hamkorlik tashkiloti a'zolari bilan savdo va investitsion aloqalarni kuchaytirish va islomiy moliya infratuzilmasini shakllantirishda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish milliy moliya tizimi transformatsiyasiga sezilarli hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, islom bankchiligi tizimini joriy etish O'zbekiston iqtisodiyotining transformatsion rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi. Bu tizim moliya bozorini diversifikatsiya qiladi, aholi va biznes subyektlarining moliyaviy inklyuziyasini oshiradi, investitsion muhitni yaxshilaydi hamda xalqaro moliyaviy integratsiyani jadallashtiradi. Islom bankchiligi institutlarini samarali tatbiq etish esa huquqiy, institutsional va infratuzilmaviy to'siqlarni bartaraf etishni, shuningdek bosqichma-bosqich modernizatsiya strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>. 2020 йил 29 декабрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2022 йил 20 aprelda qabul qilingan "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-765-sonli Qonuni.
3. Unlocking the Promise of Islamic Finance, Speech by Christine Lagarde, Managing Director, International Monetary Fund at the Islamic Finance Conference, Kuwait City, Kuwait; November 11, 2015
4. Chapra, M.U. (1992). Islam and the Economic Challenge. Islamic Foundation.
5. Э.Т. Қодиров, Ж.К. Мажидов Хорижий мамлакатларда банк иши. Ўқув қўлланма/Т. 2016 йил. 184 бет.
6. Мусаев Р.А., Магомедова Ю.Д. Тенденции развития исламских финансовых институтов в условиях глобализации в журнале Проблемы теории и практики управления, издательство ООО «Международная Медиа Группа» (Москва), № 11
7. Prof. Dr. Zubair Hasan Islamic finance: Structure-objective mismatch and its consequences INCEIF: The Global University in Islamic Finance, Kuala Lumpur. <https://mpira.ub.uni-muenchen.de/21536/>
8. Зарипов И.А. (2016) Исламские финансы как стратегический ориентир развития России. / Zaripov I.A. (2016) Islamic finance as a strategic landmark for the development of Russia. <https://cyberleninka.ru/>.
9. Rafik Yunus al-Misri. Fikhh imushchestvennykh otnosheniy. / per. s arab. [Fiqh property relations. / translated from Arabic] / D.Adzhi; redsovet: B.F.Mulyukov and others, - Moskva: Islamskaya kn., 2014. – P. 320.
- Haron S. (2004). "Determinants of Islamic Bank Profitability." Global Journal of Finance and Economics.